

TMM – “Indorama Kokand II” kompaniyasi uchun aylanma mablag'lar

Manzil: O'zbekiston

Loyiha raqami: 54302

Biznes sektorii: Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish

Sektor turi: Xususiy

Ekologik toifasi: B

Loyiha tasdiqlangan sana: 2023-yil 9-may

Holati: Moliyalashtirilmoxda

Loyiha nashr qilingan sana: 2023-yil 10-may

Axborotdan foydalanish to'g'risidagi yo'rinqomaning 1.4.2 (iii) bo'limiga ko'ra: "Bank rahbariyati tomonidan tasdiqlangan loyihalari uchun Direktorlar kengashi tasdiqlash vakolatini ularga topshirgan taqdirda, YTTBni ta'sis etish to'g'risidagi Bitimning 13 (iii) moddasiga muvofiq, loyiha rezyumesi Bankning a'zo-mamlakatiga qarshiliklar yo'qligi haqidagi tegishli bildirishnomasi berilgan davr boshida ma'lum qilinishi kerak".

Loyiha tavsifi

O'g'itlar ishlab chiqaruvchi "Indorama Kokand" kompaniyasini hamda uning oddiy va ammiaklangan superfosfat ishlab chiqarish faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida uning yangi o'g'itlar, shu jumladan kaliyli o'g'itlar ishlab chiqarish orqali kompaniyani kengaytirish dasturi oldidan 5 million AQSh dollari miqdorida yuqori darajadagi aylanma mablag'lar krediti taqdim etilmoqda.

O'tish davri ta'siri

ETI (Kutilayotgan O'tish Ta'siri): 63

- Raqobatbardoshlik: Loyiha mamlakatga va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar cheklangan kimyo sektoriga to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni olib keladi.
- Inklyuzivlik: Loyiha tegishli sohada tahsil olayotgan talabalarning amaliyot o'tash orqali bandlik darajasini oshirishga, shuningdek, Qarz oluvchining oxirgi iste'molchilarini bilimlarni bo'lishish bo'yicha salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Mijoz haqida ma'lumot

“INDORAMA KOKAND FERTILISERS AND CHEMICALS” OAJ

“Indorama Kokand Fertilisers and Chemicals” korxonasi O‘zbekistonda fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish bo‘yicha yetakchi hisoblanadi. Kompaniya 2019-yil iyun oyida “Indorama Corporation Pte. Ltd.”ga davlat ulushlarini sotish orqali xususiylashtirildi. 2020-yilda YTTB zavodni modernizatsiya qilishni qo‘llab-quvvatlash uchun 12,5 million AQSh dollari miqdorida kapital mablag‘ va 10 million dollar aylanma mablag‘lar krediti ajratdi.

YTTBning moliyaviy xulosasi

5 mln AQSh dollari

Loyihaning umumiy qiymati

5 mln AQSh dollari

Qo'shimchalilik

YTTB tijorat banklarida mavjud bo'lмаган kredit muddatini taqdim etadi va uning qarz oluvchi bilan uzoq muddatli munosabatlari kompaniyaga davlat ustunlik qiladigan sektorda faoliyat yuritishi uchun qimmatli qulaylikni ta'minlaydi.

Ekologik va ijtimoiy xulosa

Loyiha B toifaga kiritilgan (2019-yilgi Ekologik va Ijtimoiy Siyosatga muvofiq). Mavjud o'g'it zavodining ishlashi uchun aylanma mablag'lardan foydalanishning ekologik va ijtimoiy (E&I) ta'sirlari hududdan tashqariga chiqmay, samarali yumshatish choralarini orqali osonlik bilan aniqlanadi va hal qilinadi. Ekologik va ijtimoiy ekspertiza (EIE) ichki tartibda amalga oshirildi va qarz oluvchining yuborilgan so'rovnomaga bergen javoblarini, E&I siyosatlar va protseduralarga tegishli hujjatlarni, Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasini (EIHR) bo'yicha kompaniya faoliyatini yoritib beruvchi so'nggi yillik E&I hisobot hamda yaqindagi mehnat munosabatlari holating tekshirushi haqidagi hisobotni o'z ichiga oldi. Bankning avvalgi mijozni sifatida obyektni modernizatsiya qilish va undan keyingi ishlab chiqarish masalasi avvalgi EIEda ko'rib chiqilgan bo'lib, mavjud EIHR umuman yaxshi amalga oshirilmoqda. Homiyning atrof-muhit muhofazasi, sog'liqni saqlash va xavfsizlik, inson huquqlari va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq korporativ siyosatlari hamda Qarz oluvchining ularga aloqador normativ hujjatlari, asosan, YTTBning Loyiha Talablariga (LT) mos keladi, ammo 2019-yilgi LT bilan muvofiqlashtirish uchun obyektda ba'zi sohalarni takomillashtirish talab etiladi. Bunga barcha yetkazib beruvchilarni qamrab oluvchi, yetkazib beruvchilar faoliyatini tekshirish hamda monitoring qilish uchun xavfga e'tibor

qaratuvchi yondashuvni ishlab chiqish maqsadida boshqaruv tizimlari metodiga mos keladigan ta'minot zanjirini boshqarishning joriy tartibini takomillashtirish kiradi. Genderga oid zo'ravonlik va ta'qiblar (GOZT) bilan bog'liq shikoyatlarni ko'rib chiqish uchun xodimlar shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmini, shuningdek, jamoatchilik shikoyatlarini tizimli ro'yxatga olish va boshqarish hamda manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasini yangilash va oshkor qilish, shu jumladan jamoatchilik shikoyatlarini ko'rib chiqish mexanizmini takomillashtirish talab etiladi. EIE mavjud obyekt yaqinda yangi o'g'it mahsulotini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish orqali kompaniya faoliyatida o'zgarish qilganini aniqladi va Qarz oluvchi o'zgarishlarni boshqarishni o'z zimmasiga olib, havoga chiquvchi emissiya miqdori hali ham Yevropa Ittifoqi talablari bilan belgilangan chegaradan oshmasligini tasdiqladi. Qarz oluvchining mazkur o'zgarish yuzasidan atrof-muhit muhofazasi va texnik xavfsizlikni baholash bo'yicha tahlili tegishli LT bilan muvofiqlikni tasdiqlash va agar kerak bo'lsa, har qanday qo'shimcha yumshatish choralarini tavsija qilish uchun mustaqil maslahatchi firma tomonidan amalga oshirilishi kerak. Bundan tashqari, mijozdan LT2 talablarini bajarish bilan bog'liq bo'shlqlar aniqlanganligini va tegishli tuzatish choralarini ishlab chiqilishi hamda amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida obyektning navbatdagi mehnat munosabatlari holatining tekshiruvi uchun tajribali ekspertni jalb qilish talab qilinadi. Qarz oluvchi bankka yillik E&I hisobotlarni taqdim etishda davom etishi talab etiladi.

Texnik hamkorlik va grantlar

Loyihaga aloqador grantlar mavjud emas, THga oid va THga oid bo'limgan tadbirlar olib borilmoqda.

Kompaniyadagi aloqa kontakti

Ganesh Chaudhary

Ganesh. Chaudhary@ indorama.com

<https://indoramakokandfertilizer.com/>

Loyiha rezyumesining oxirgi yangilangan sanasi

2023-yil 10-may

O'tish davri nima

YETTBning loyihalarning o'tish davrida ta'sirini o'lchashga qaratilgan yondashuvi haqida qo'shimcha ma'lumotni [mana bu yerdan](#) olishingiz mumkin.

Loyihada ishtirok etish imkoniyatlari

Loyihada ishtirok etish yoki xaridlar uchun mijoz-kompaniya bilan bog'laning.

YTTB bilan hamkorlik masalasida (xaridlar bilan bog'liq bo'limgan) quyidagi manzilga murojaat qiling:

Tel: +44 20 7338 7168

Elektron pochta: projectenquiries@ebrd.com

Davlat sektoridagi loyihalar uchun [EBRD Procurement](#) bo'limiga o'ting:

Tel: +44 20 7338 6794

Elektron pochta: procurement@ebrd.com

Umumiy murojaatlar

Muayyan so'rovlar bo'yicha murojaatlar [YTTB so'rovlar formasi](#) yordamida amalga oshirilishi mumkin.

[EIS](#) va ular bilan bog'liq Loyihani amalga oshirish talablari (LT) YTTBning "ekologik jihatdan sog'lom va barqaror rivojlanishni" rag'batlantirish bo'yicha intilishlarini amalga oshirish tartibini belgilab beradi. EIS va LTlar mijozlarga ommaviy axborot va maslahatlar bo'yicha milliy qonunlarning amaldagi talablariga rioya qilishlari uchun, shuningdek, manfaatdor tomonlarning mijoz va loyihaning ekologik hamda ijtimoiy samaradorligi haqidagi tashvish va shikoyatlarini qabul qilish va hal qilishda yordam berish uchun shikoyat mexanizmini yaratish maqsadida maxsus qoidalarni o'z ichiga oladi. Loyihaning ekologik va ijtimoiy xavfi hamda ta'sirining tabiatini va ko'lidan kelib chiqqan holda YTTB qo'shimcha ravishda o'z mijozlaridan loyihalardan kelib chiqadigan xavf va ta'sirlar to'g'risidagi ma'lumotlarni tegishlicha ochiqlash yoki manfaatdor tomonlar bilan mazmunli maslahatlashuvlar o'tkazish hamda ularning fikr-mulohazalariga javoban chora ko'rishni talab qiladi.

YTTBning bu boradagi amaliyoti haqida batafsil ma'lumot [EISda](#) keltirilgan.

To'g'rilik va muvofiqlik

YTTBning Muvofiqlik bo'yicha idorasasi (MBI) mas'uliyatlari boshqaruvni targ'ib qiladi va Bankning barcha faoliyatlarida ilg'or xalqaro amaliyotga muvofiq halollikning eng yuqori standartlari qo'llanilishini ta'minlaydi. Loyihalar Bank uchun nomaqbul faoliyat yoki obro'-e'tiborga putur yetkazish xavfini tug'dirmasligi uchun Bankning barcha mijozlariga nisbatan halollik tekshiruvi o'tkaziladi. Bank loyihalarni baholash va tasdiqlash bosqichlarida muammolarni aniqlash hamda hal qilish Bank operatsiyalarining to'g'riliгини ta'minlashning eng samarali vositasi deb hisoblaydi. MBI ushbu profilaktika sa'y-harakatlarida asosiy rol o'yaydi va investitsiyadan keyingi bosqichda loyihalardagi nomuvofiqlik xavflarini nazorat qilishga yordam beradi.

MBI, shuningdek, YTTB tomonidan moliyalashtirilgan loyihalarda firibgarlik, korrupsiya va huquqbuzarlik haqidagi da'volarni tekshirish uchun mas'uldir. Agar kimdir bank ichida yoki bankdan tashqarida firibgarlik yoki korrupsiya sodir etilgan deb gumon qilsa, Muvofiglik bo'yicha bosh direktorning compliance@ebrd.com elektron pochta manziliga yozma xabar berishi kerak. Xabar qilingan barcha ma'lumotlar MBI tomonidan tegishli chora ko'rish uchun o'rganib chiqiladi. Barcha shikoyatlar, shu jumladan, anonim murojaatlar ham ko'rib chiqiladi. Murojaatlar Bankning istalgan tilida yoki Bank faoliyat yuritayotgan mamlakat tilida yozilishi mumkin. Taqdim etilgan ma'lumotlar vijdonan amalga oshirilishi kerak.

Axborotdan foydalanish siyosati (AFS)

AFS 2020-yil 1-yanvarda kuchga kirganidan beri Bank o'z strategiyalari, siyosatlari va operatsiyalari haqida xabardorlikni oshirish va tushunishga ko'maklashish maqsadida YTTB axborotni qanday oshkor qilishi va manfaatdor tomonlar bilan maslahatlashishini belgilab beradi. YTTB veb-saytida qanday ma'lumotlar mavjudligini bilish uchun [Axborotdan foydalanish siyosati](#) bo'limiga o'ting.

Ma'lumot olish uchun maxsus so'rovlar [YTTB so'rovlar formasi](#) orqali yuborilishi mumkin.

Loyihalar uchun mas'uliyatli mustaqil organ (LMMO)

Mijoz yoki Bank bilan ekologik, ijtimoiy yoki ma'lumotlarni ochiqlash bilan bog'liq muammolarni hal qilish bo'yicha urinishlar muvaffaqiyatsizlikka uchrasa (masalan, Mijozning loyiha doirasidagi shikoyat mexanizmi yoki Bank rahbariyatining to'g'ridan-to'g'ri aralashuvি orqali), jismoniy shaxslar va tashkilotlar o'z shikoyatlarini YTTBning Loyihalar uchun mas'uliyatli mustaqil organi (LMMO) orqali hal qilishlari mumkin.

LMMO zarar keltirgan (yoki zarar keltirishi mumkin bo'lgan) loyiha masalalarini mustaqil ravishda ko'rib chiqadi. Mazkur organning maqsadi ekologik, ijtimoiy va ma'lumotlarni ochiqlash masalalarini hal qilish uchun Loyihaning manfaatdor tomonlari o'rtasidagi muloqotni qo'llab-quvvatlash; bank o'zining [Ekologik va ijtimoiy siyosatiga](#) yoki [Axborotdan foydalanish siyosatining](#) loyihaga oid tartib-qoidalariga rioya qilganligini aniqlash; va agar kerak bo'lsa, kelajakda Bank tomonidan qoidalarga rioya qilmaslikning oldini olish bilan birga, ushbu siyosatlarga nisbatan mavjud har qanday nomuvofiqlikni bartaraf etishdan iborat.

LMMO va uning mandati haqida ko'proq ma'lumot olish, qanday [so'rov yuborish](#) kerakligini bilish uchun [Loyiha uchun mas'uliyatli mustaqil organ veb-sahifasiga](#) tashrif buyuring; yoki LMMO va so'rovni qanday yuborish bo'yicha yo'l-yo'riq hamda qo'shimcha ma'lumot olish uchun ipam@ebrd.com elektron pochtasi orqali LMMO bilan bog'laning.